2026-yil
8-son

FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 37.018.3:17.022.1(575.172)

Yusupov Quwanish Dawletbaevich,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari metodikasi” kafedrasining dotsenti v.b.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA O‘SMIR YOSHLAR BILAN MAKTABDAN TASHQARI ISHLARDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘smir yoshlar bilan olib boriladigan maktabdan tashqari ishlarda milliy qadriyatlarning o‘rni va pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda maktabdan tashqari ta’lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning o‘smirlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, milliy o‘zligini anglash, vatanparvarlik va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, “Barkamol avlod” bolalar maktablari negizida tashkil etilgan “Kelajak” markazlari faoliyati, to‘garak mashg‘ulotlarida milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida singdirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda pedagogik tajriba-sinov metodidan foydalanilib, maktabdan tashqari ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy faoliyatning samaradorligini aniqlashga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maktabdan tashqari ta’lim, o‘smir yoshlar, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, to‘garak faoliyati, pedagogik tajriba-sinov, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM yondashuvi.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ВО ВНЕШКОЛЬНОЙ РАБОТЕ С ПОДРОСТКАМИ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

Аннотация. В статье анализируются роль и педагогическое значение национальных ценностей во внешкольной работе с подростками в Республике Каракалпакстан. В исследовании освещены возможности использования национальных ценностей в процессе внешкольного образования для духовно-нравственного развития подростков, формирования национального самосознания, патриотизма и социальной активности. Также рассмотрена деятельность центров «Kelajak», созданных на базе школ «Barkamol avlod», а также вопросы внедрения национальных ценностей в содержание кружковых занятий на основе современных педагогических подходов. В ходе исследования использован метод педагогического эксперимента, основное внимание уделено определению эффективности воспитательной деятельности, основанной на национальных ценностях, в процессе внешкольного образования.

Ключевые слова: внешкольное образование, подростки, национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, национальное самосознание, патриотизм, кружковая деятельность, педагогический эксперимент, современные педагогические технологии, STEAM-подход.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES WITH ADOLESCENTS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Abstract. This article analyzes the role and pedagogical significance of national values in extracurricular activities with adolescents in the Republic of Karakalpakstan. The study highlights the potential of using national values in the process of extracurricular education for the spiritual and moral development of adolescents, the formation of national identity, patriotism, and social activity. It also examines the activities of the "Kelajak" centers established on the basis of "Barkamol avlod" children's schools, as well as the integration of national values into extracurricular club activities through modern pedagogical approaches. The study employed a pedagogical experimental method, with particular attention paid to determining the effectiveness of educational activities based on national values within the extracurricular education process.

Keywords: extracurricular education, adolescents, national values, spiritual and moral education, national identity, patriotism, club activities, pedagogical experiment, modern pedagogical technologies, STEAM approach.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimining jadal sur'atlarda kengayishi, turli madaniyatlar va qadriyatlarning erkin almashinuvi yoshlar ma'naviy tarbiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois yuksak ma'naviyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, sog'lom ijtimoiy ong asosida faoliyat yuritadigan o'smirlarni tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'smirlik davri inson hayotining eng nozik va ayni vaqtda shaxsiy imkoniyatlar faol shakllanadigan bosqichlaridan biridir. Mazkur davrda shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlari, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlari va faolligi shakllana boshlaydi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonni faqat dars mashg'ulotlari bilan cheklash o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishini to'liq ta'minlash uchun yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy kamoloti, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirish muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini

oshirish, ijodiy, sport va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, shuningdek, ma’naviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ayniqsa, zamonaviy axborot makonida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va turli g‘oyaviy oqimlarning yoshlar ongiga ta’siri kuchayib borayotgan sharoitda o‘smirlarning ma’naviy barqarorligini ta’minlash dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabdan tashqari tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, milliy qadriyatlardan samarali foydalanish va uning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Qoraqalpog‘iston Respublikasida maktabdan tashqari ta’lim jarayonida o‘smir yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlash, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish hamda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘smir yoshlar bilan olib boriladigan maktabdan tashqari ishlarda milliy qadriyatlardan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘smir yoshlar bilan olib borilayotgan maktabdan tashqari ta’lim va tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti esa maktabdan tashqari faoliyat jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning mazmuni, shakl va metodlari hamda ularning o‘smirlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov metodidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi maktabdan tashqari ta’lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda, avvalo, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning tajribasi, o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari hamda mavjud amaliyot o‘rganildi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi maktabdan tashqari ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar jalb qilindi. Tajriba-sinov jarayonida pedagoglarning milliy qadriyatlarni tarbiyaviy faoliyatga singdirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hamda o‘smirlar bilan ishlash tajribasiga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini milliy va umuminsoniy qadriyatlarning pedagogik mazmuni, o‘smirlik davrining psixologik-pedagogik xususiyatlari, maktabdan tashqari ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari tashkil etdi.

Milliy qadriyatlarning pedagogik mazmuni. Har bir millat o‘z qadriyatlarining yaratuvchisi bo‘lish bilan birga, ularni asrab-avaylovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlantirilishi, avvalo,

shu millat vakillarining ma'naviy mas'uliyati bilan bog'liq. Millat turli tarixiy va siyosiy jarayonlarni boshdan kechirishi mumkin, biroq uning o'zligini belgilovchi milliy qadriyatlarni saqlashga bo'lgan ehtiyoj yo'qolmaydi.

Milliy qadriyatlarni millatning tarixiy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganish ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlovchi etnik muhitda shakllanib, turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ular insonlarning dunyoqarashi, hayot tarzi, o'zaro munosabatlari va ijtimoiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda namoyon bo'lib, jamiyat taraqqiyoti davomida takomillashadi va avloddan-avlodga meros sifatida o'tadi.

Milliy qadriyatlar tizimi tarixiy jarayonlar, zamon talablari hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Har bir xalq o'ziga xos qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish orqali umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishiga ham munosib hissa qo'shadi. Shu jihatdan milliy qadriyatlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim ma'naviy-pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. [2, 39–40]

Milliy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri odob-axloq me'yorlaridir. Odob-axloq insonning kundalik hayoti, o'zaro munosabatlari va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'lib, asosan oila, ota-ona namunasi, ajdodlar o'giti va jamiyatdagi ijobiy muhit orqali shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, oiladagi tarbiyaviy muhit jamiyat ma'naviy barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Abu Nasr Forobiyning insonning baxtga erishishida go'zallikni nafaqat ko'rish va his qilish, balki uni yaratish muhimligi haqidagi fikrlari tarbiya jarayonida shaxsiy namunaning ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, mutafakkirning inson yaxshi tarbiya olishi, yaxshi xulq-atvor va fazilatlarga ega bo'lishi lozimligi haqidagi qarashlari bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Oila a'zolarining o'zaro munosabati, kattalarning shaxsiy namunasi va farzand bilan muloqot madaniyati bolaning ma'naviy qiyofasi shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. [3, 11–12]

O'smirlik davri va ma'naviy tarbiya. O'smirlik davri inson rivojlanishining murakkab va muhim bosqichlaridan biri bo'lib, odatda 11–15 yosh oralig'ini qamrab oladi. Ushbu davrda bolalikdan o'spirinlikka o'tish jarayoni kechadi va shaxsning jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'smirlarda mustaqil fikrlash, o'z shaxsiyatini namoyon etish, tengdoshlari orasida o'z o'rnini topish istagi kuchayadi. Shu bilan birga, hissiy beqarorlik, qarama-qarshiliklarga moyillik va kattalar bilan munosabatlarda mustaqillikka intilish kabi holatlar ham kuzatilishi mumkin.

Mazkur davrda o'smirlarning kattalarga, ayniqsa, o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan munosabati ham o'zgaradi. Ular bilimli, talabchan, adolatli, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazib bera oladigan pedagoglarni

ko‘proq hurmat qiladilar. Shu sababli pedagogning shaxsiy namunasi, o‘quvchilar bilan muloqot madaniyati va ularga bo‘lgan munosabati o‘smirlarning tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

O‘smirlik davrida kelajak kasbini tanlash, xulq-atvor me’yorlarini anglash, o‘z majburiyatlariga mas’uliyat bilan yondashish kabi masalalar ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli aynan mazkur davrda maktabdan tashqari faoliyatni mazmunli tashkil etish orqali o‘smirlarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratiladi. [4, 90–108]

Maktabdan tashqari ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlari. Maktabdan tashqari ta’lim bolalar va o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan individual ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta’lim-tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismidir. Mazkur tizim madaniy-estetik, ilmiy-texnik, sport, ijodiy va boshqa yo‘nalishlarda tashkil etilib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga imkon beradi.

Maktabdan tashqari ta’limning o‘ziga xos jihati shundaki, unda o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlari asosida faoliyatni tashkil etish imkoniyati kengroqdir. To‘garak mashg‘ulotlari, ijodiy loyihalar, sport tadbirlari, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar va turli tanlovlar o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularda ijtimoiy faollik, mas’uliyat, hamkorlik va ijodkorlik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. [5, 51]

Shu nuqtai nazardan, maktabdan tashqari ta’limni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘smirlarning o‘zligini anglash, milliy g‘urur, vatanparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, mehnatsevarlik va jamoada ishlash kabi fazilatlarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Milliy qadriyatlarni maktabdan tashqari faoliyatga integratsiyalash. Milliy axloqiy meros xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan bebaho ma’naviy boyligi hisoblanadi. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashgan bo‘lib, yosh avlod tarbiyasida ulardan oqilona foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ajdodlarimizning axloqiy qarashlari insonni halollik, kamtarlik, odoblilik, mehnatsevarlik, sabr-toqat va ezgulikka chorlaydi. Shu bois milliy meros namunalarini zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish o‘smirlarning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. [6, 212]

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish uchun milliy o‘yinlar, folklor namunalari, xalq og‘zaki ijodi, urf-odat va an’analar, milliy hunarmandchilik, tarixiy obidalar hamda buyuk ajdodlar merosidan foydalanish mumkin. Bunda an’anaviy tarbiya shakllarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda milliy bayramlar, davlat ramzlariga hurmat, ajdodlar merosiga ehtirom, Vatanga sadoqat, fuqarolik burchi va kasbiy mas’uliyat kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor berish mumkin. Shuningdek, odob-axloq, muloqot madaniyati, ota-onaga hurmat, mehmondo‘stlik, nonni e’zozlash,

mehnatni qadrlash kabi mavzularda suhbatlar, bahs-munozaralar, davra suhbatlari, ijodiy kechalar va tanlovlarni tashkil etish o‘smirlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Maktabdan tashqari ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni yoshlarning zamonaviy qiziqishlari bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan STEAM yondashuvi, loyiha metodi, raqamli texnologiyalar, hamkorlikda o‘qitish va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

STEAM yondashuvi doirasida milliy madaniyat va tarixga oid mavzularni fanlararo loyihalar orqali o‘rganish mumkin. Masalan, tarixiy obidalar yoki milliy hunarmandchilik buyumlarini 3D modellashtirish, milliy naqshlarni grafik dasturlar yordamida qayta ishlash, xalq amaliy san’ati asosida dizayn loyihalarini yaratish kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ham texnik va ijodiy ko‘nikmalarni, ham milliy madaniyatga qiziqishni rivojlantiradi.

Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar avvalo milliy merosga oid ma’lumotlarni izlaydi, zarur manbalarni o‘rganadi, loyiha g‘oyasini ishlab chiqadi, model yoki mahsulot yaratadi va yakunda o‘z ishini taqdim etadi. Mazkur jarayon o‘quvchilarda mustaqil izlanish, muammoli fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va mas’uliyat kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish maktabdan tashqari ta’limning imkoniyatlarini kengaytiradi. Canva, Padlet, FigJam, iSpring Suite, Tinkercad va PhET kabi vositalardan mashg‘ulotlarning mazmuniga qarab foydalanish mumkin. Masalan, “Milliy qadriyatlar – mening faxrim” mavzusida Canva platformasida guruhiy taqdimot tayyorlash o‘quvchilarga milliy urf-odatlar, vatanparvarlik va oilaviy qadriyatlar haqida izlanish olib borish, ma’lumotlarni saralash va ularni ijodiy tarzda taqdim etish imkonini beradi.

Bunday faoliyat natijasida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga ongli munosabati shakllanadi, hamkorlik va ijodkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi, axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish malakasi mustahkamlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida maktabdan tashqari ta’limning rivojlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son qarorida maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ilmiy-texnik, ijodiy va sport salohiyatini ro‘yobga chiqarish, Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi vazifalar belgilangan. Mazkur yondashuv maktabdan tashqari ta’limning nafaqat qo‘shimcha bilim beruvchi, balki muhim tarbiyaviy muhit sifatidagi ahamiyatini ham kuchaytiradi. [7]

Qaror doirasida “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini takomillashtirish, o‘quvchilarning iqtidorini aniqlash, ijodiy va texnik yo‘nalishlarda qo‘shimcha ta’limni rivojlantirish, zamonaviy to‘garaklarni tashkil etish va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ko‘zda tutilgan. [8]

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida maktabdan tashqari ta’lim tizimining moddiy-texnik va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Respublika hamda tuman va shahar miqyosidagi “Kelajak” markazlarida madaniyat va san’at, axborot texnologiyalari, jismoniy tarbiya va sport, kasb-hunar, turizm va ekologiya, ilm-fan, xorijiy tillar, kitobxonlik hamda boshqa yo‘nalishlarda to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur yo‘nalishlarning kengayishi o‘smirlarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, milliy qadriyatlarni zamonaviy faoliyat shakllari orqali targ‘ib etish uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. [9–11]

Oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi. O‘smirlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida maktabdan tashqari ta’lim muassasasi, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Chunki milliy qadriyatlarni faqat mashg‘ulot jarayonida tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, ularni o‘quvchining kundalik hayotida amaliy faoliyat orqali namoyon etish zarur.

Ota-onalar bilan individual suhbatlar, maslahatlar, davra suhbatlari, ota-onalar yig‘ilishlari va hamkorlikdagi tadbirlar orqali farzand tarbiyasining uzviyligini ta’minlash mumkin. Ayniqsa, ota-onaning shaxsiy namunasi, farzand bilan muloqot madaniyati va uning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashi o‘smirning ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oila va maktabdan tashqari ta’lim muassasasi hamkorligida milliy bayramlar, hunarmandchilik ko‘rgazmalari, oilaviy sport musobaqalari, kitobxonlik tadbirlari, avlodlar uchrashuvlari va mahalliy tarixga oid loyihalarni tashkil etish mumkin. Bunday tadbirlar orqali o‘quvchi milliy qadriyatlarni nafaqat nazariy jihatdan o‘rganadi, balki ularni amaliy faoliyatda his etadi va qo‘llaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida maktabdan tashqari ta’lim faoliyatida milliy qadriyatlardan foydalanishning samaradorligini aniqlashga e’tibor qaratildi. Tadqiqotda ishtirok etgan pedagoglarning faoliyati, ularning o‘smirlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tajribasi va milliy qadriyatlarni mashg‘ulot mazmuniga singdirish imkoniyatlari o‘rganildi.

Tajriba-sinov natijalari maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish pedagogik jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, loyiha asosida ishlash, guruhiy faoliyat, interaktiv topshiriqlar, raqamli taqdimotlar va ijodiy mashg‘ulotlardan foydalanish o‘quvchilarning mashg‘ulotlardagi faolligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirish milliy qadriyatlarni maktabdan tashqari ta’lim mazmuniga samarali integratsiya qilishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Shu sababli “Kelajak” markazlarida faoliyat yuritayotgan to‘garak rahbarlari uchun milliy qadriyatlar, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishga oid amaliy treninglarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Pedagoglarning malakasini oshirish jarayonida STEAM, loyiha va dizayn fikrlash yondashuvlarini Qoraqalpoq xalqining madaniy merosi, amaliy san'ati, milliy o'yinlari, urf-odatlari va tarixiy obidalari bilan bog'lash bo'yicha metodik ishlanmalar yaratish ham samarali natija beradi. Shuningdek, Tinkercad kabi platformalarda milliy qadriyatlarga oid modellar yaratish, Canva orqali milliy mavzudagi taqdimot va infografikalar tayyorlash, raqamli portfoliolar yuritish o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga milliy o'zlikni anglashiga ham xizmat qiladi.

Taklif va tavsiyalar. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'smir yoshlar bilan maktabdan tashqari ishlarda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish uchun, avvalo, to'garak rahbarlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish zarur. Malaka oshirish dasturlarida milliy qadriyatlarni tarbiyaviy faoliyatga integratsiya qilish, o'smirlarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim to'garaklari uchun Qoraqalpog'iston xalqining tarixiy-madaniy merosi, milliy urf-odatlari, xalq amaliy san'ati, folklori va milliy o'yinlariga asoslangan metodik qo'llanmalar yaratish lozim. Mazkur materiallar to'garaklarning yo'nalishiga mos ravishda ishlab chiqilib, an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy kasbiy va texnologik ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilishi kerak.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha pedagoglar uchun mahorat darslarini tashkil etish, milliy mavzudagi raqamli kontentlar bazasini yaratish va o'quvchilarning ijodiy ishlarini elektron portfoliolar orqali jamlab borish ham samarali yo'nalishlardan biridir. Bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil ishlashi, o'z faoliyatini baholashi va o'z natijalarini boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyatini kengaytiradi.

Bundan tashqari, maktab, oila, mahalla va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish zarur. Ota-onalarni milliy qadriyatlarga oid tadbirlarga jalb etish, oilaviy loyihalarni tashkil qilish va mahalliy tarix hamda madaniyat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish o'smirlarning tarbiyaviy muhitini yanada boyitadi.

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'smir yoshlar bilan maktabdan tashqari ishlarda milliy qadriyatlardan foydalanish ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, milliy o'zligini anglash, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Maktabdan tashqari ta'limning o'ziga xos imkoniyatlari o'smirlarning qiziqishlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni an'anaviy tarbiya shakllari bilangina emas, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM yondashuvi, loyiha faoliyati va raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish yuqori pedagogik

imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning milliy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish va axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi zamonaviy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni o‘smirlar tarbiyasiga singdirishda pedagogning shaxsiy namunasi, oilaviy muhit va maktabdan tashqari ta’lim muassasasining tarbiyaviy imkoniyatlari o‘zaro uyg‘un holda tashkil etilishi muhimdir. Mazkur jarayonning samaradorligi, avvalo, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ta’lim mazmunining milliy va zamonaviy jihatlar bilan boyitilishi hamda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining izchil yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liq.

Umuman olganda, milliy qadriyatlarni maktabdan tashqari ta’lim mazmuniga tizimli ravishda integratsiya qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasida ma’naviy yetuk, milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-277-son qarori. – Toshkent, 2025.
3. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. – Б. 39–40.
4. Фармонова М. Шарқ мутафаккирларининг маънавий меросида фарзанд тарбияси. – Тошкент: Тасвир нашриёт уйи, 2020. – Б. 11–12.
5. Botirova D.B. Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi: darslik. – Toshkent, 2021. – B. 90–108.
6. Xalq ta’limi: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 51.
7. Шарифхужаев М., Давронов З. Маънавият асослари: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2005. – Б. 212.
8. Buxgalter.uz. O‘zbekiston qonunchiligi va huquqiy-iqtisodiy axborotlar portali. Buxgalter.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ. LexUZ
10. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Gov.uz
11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi. “Kelajak” markazlari faoliyatiga oid ma’lumotlar. Kelajak markazlari
12. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент, 2013. – Б. 97–98.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694